

O’zbekiston davlat jahon tillari universitetida “Yosh kitobxon” tanlovini  
tashkil etish va o’tkazish tartibi to’g’risidagi  
**NIZOM**

**1. Umumiy qoidalar:**

- 1.1. Ushbu tanlov fakultetlarda kitobxonlikni targ‘ib qilish, talabalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.
- 1.2. Tanlovda ishtirokchilar belgilangan asarlar asosida tayyorlangan savollarga javob berishadi.
- 1.3. Tanlovnin o’tkazish joyi, sanasi va vaqtin oldindan belgilab e’lon qilinadi.

**2. Ishtirokchilar:**

- 2.1. Har bir fakultetlardan kitob o‘qishga qiziqadigan talabalar ishtirok etishlari mumkin. Fakultet bosqichini tashkil etishga Yoshlar ittifoqi fakultet yetakchilari mas’ul hisoblanadi.
- 2.2. Tanlovnining universitet bosqichiga har bir fakultetdan bir nafardan talaba ishtirok etishi mumkin

**3. Tanlovnining tarkibi va o’tkazilish tartibi:**

- 3.1. Tanlov uchun Tashkiliy qo’mita tomonidan 10 ta aasar belgilab olinadi. Asarlarni tanlashda tanlovnin tashkil etishda tashabbuskor bo‘lgan Yoshlar ittifoqi qoshidagi “Book Club” klubini koordinatorining takliflari inobatga olinadi.  
Har bir asardan asar hajmiga ko’ra savol tayyorlanadi. Savollar asarning mazmuni, mohiyati, syujeti, qahramonlari va g’oyalari haqida bo‘ladi.
- 3.3. Tanlovnining fakultet bosqichida berilgan asarlar bo'yicha tuzilgan 40 ta testni ishlash talab qilinadi va eng yuqori ball yig’gan ishtirokchi g’olib deb topiladi. G’olib ishtirokchi tanlovnining universitet bosqichida ishtirok etadi.
- 3.4. Tanlovnining universitet bosqichi 3 ta shart asosida tashkil qilinadi:

1-shart. “Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid epizod o’qib eshittiriladi. Ishtirokchidan ushbu asar nomini topishi hamda uning mazmun-mohiyati, g’oyasi va hozirgi kundagi ahamiyati to’g’risida sharhlab berish so’raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchi bilimini ekshirish maqsadida Hakamlar hay’ati tomonidan qo’shimcha savollar berilishi mumkin.

Tayyorgarik ko’rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 10 ballgacha baho beriladi. Asar nomi to’g’ri topilganda 5 ball qo’yiladi (topilmasa 0 ball) hamda ishtirokchi asar nomini topaolmasa sharhlashga imkon berilmaydi. Asar nomini to’g’ri topgan ishtirokchiga sharhlagani uchun yana 5

ballgacha baho qo'yilishi mumkin.

2-shart. "Tezkor savol-javob" sharti.

Ushbu shartda Tashkiliy qo'mita tomonidan tavsija etilgan adabiyotlardan tuzilgan 10 ta savolga 10 ta javob berish so'raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt ajratilmaydi, savol o'qilishi bilan 10 soniya ichida javob berish lozim. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi, mazkur shart uchun 10 ballagacha baho beriladi.

3-shart. "Buyuk mutafakkir va adib" sharti.

Ushbu shartda ishtirokchilar ulug' allomalar, o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi.

Ishtirokchidan ulug' allomalar, o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari hayoti, faoliyati va ijodi haqida ma'lumot berishlari so'raladi. Ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Har bir ulug' allomalar, o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari to'g'risida ma'lumot bergenligi uchun 10 ballgacha baho beriladi.

#### **4. Baholash tizimi:**

- 4.1. Har bir shart uchun 10 ballgacha baho beriladi.
- 4.2. Maksimal umumiy shartlar bo'yicha 30 ball beriladi.
- 4.3. Ballar teng bo'lib qolsa, qo'shimcha savol berilib natijalar aniqlanadi.

#### **5. G'oliblarni aniqlash va taqdirlash:**

- 5.1. G'oliblar jami to'plangan ballar asosida aniqlanadi.
- 5.2. Birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rnlarni egallagan jamoalarga darajali sertifikatlar va pul mukofotlari topshiriladi.
- 5.3. 1-o'rin uchun stipendiyaning 3 baravari miqdorida;

2-o'rin uchun stipendiyaning 2 baravari miqdorida;

3-o'rin uchun stipendiyaning 1 baravari miqdorida pul mukofotlari beriladi.

#### **6. Boshqa qoidalar:**

- 6.1. Tanlov davomida barcha ishtirokchilar odob-axloq qoidalariga rioya qilish shart. I
- 6.2. Har qanday noaniq holatlar hakamlar hay'ati tomonidan hal qilinadi. Noaniq holatlarni hal qilishda xolislikka ahamiyat beriladi va barcha taraflarning vajlari eshitiladi.
- 6.3. Tanlovning yakuniy qarorlariga nisbatan tanlov o'tib bo'lgan vaqtdan keyin shikoyat qilinmaydi.

